

YEI DOIRASIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR VA ULARNING ISTIQBOLLARI

Muqimov Asrorjon Rasulovich - Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: O'zbekistonning YEIIning a'zo davlatlari bilan hamkorligi, YEIIning azo bo'lishidagi ijobiy va salbiy jihatlar hamda kutilayotgan iqtisodiy tendensiyalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy integratsiya, transport logistika, sanoat kooperatsiyasi, Erkin savdo hududi, tarif va notarif usullar.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi mamlakatlar o'rtasida barcha sohalardagi o'zaro aloqalarning kuchayishiga olib kelmoqda. Bunda, har bir mamlakat uchun milliy iqtisodiyotini jahon hamjamiyatiga samarali integratsiyalashuvni chuqurlashtirish orqali tashqi iqtisodiy siyosatni doimiy takomillashtirib borish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda dunyoda 5 ta asosiy iqtisodiy integratsiyalashgan blok mavjud bo'lib, ular Yevropa Ittifoqi, MERCOSUR - Janubiy Amerika davlatlarining davlatlararo iqtisodiy birlashmasi, NAFTA – Shimoliy Amerika erkin savdo zonasasi, ACEAN – Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEI)¹ hisoblanadi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) doirasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni iqtisodiy integratsiyaning muhim ko'rinishi hisoblangan yagona bojxona ittifoqi doirasida rivojlantirish, uning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada ekspertlarning fikricha, YEII sobiq ittifoq hududidagi omadli va istiqbolli integratsiya loyiha sifatida qaralmoqda.

Bunga yaqqol misol sifatida butun dunyo tabiiy gaz zahiralarining 20 foizi, uning eksportining 50 foizi, neft zahiralarining 8 foizi va eksportining 18 foizi, ko'mir zahiralarning 22 foizi, jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 5,1 foizi Ittifoqga a'zo davlatlar hissasiga to'g'ri kelishini aytish mumkin.

Qayd etish lozimki, ittifoq iqtisodiyotining muhim tarmoqlari jadallik bilan modernizatsiya qilinib, texnologik va yuqori qiymat qo'shilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilmoqda.

¹ **Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi** - 1995 yilda Rossiya Federatsiyasi va Belorus Respublikasi o'rtasida imzolangan "Bojxona ittifoqi to'g'risida"gi bitimga asoslangan va keyinchalik o'z tarkibiga Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Armanistonni birlashtirgan.

Ushbu ijobiy iqtisodiy tendensiyalar o‘z navbatida xorijiy mamlakatlarning YEOII bilan hamkorlikni faollashtirishga qiziqishi ortishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi savdo-iqtisodiy hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha Erkin savdo hududi to‘g‘risidagi shartnomalar imzolash orqali uchinchi mamlakatlar bilan ham hamkorlik qiladi.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston ham tashkilot huzuridagi kuzatuvchi davlat maqomini olganligi, YEOII rivojlanib borayotgan salohiyatli va keng qamrovli iqtisodiy tashkilot ekanligidan dalolat bermoqda. Bundan tashqari, YEOII mamlakatlarining geografik joylashuvi va tarixiy aloqalar nuqtai-nazardan tabiiy savdo sheriklardir.

YEOIIning asosiy funksiyalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, tashkilot asosan, bojxona-tarif va notarif yo‘nalishlarini tartibga solish, veterinariya va fitosanitariya chora-tadbirlarini minimallashtirish hamda uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo rejimlarini o‘rnatishni nazarda tutadi.

Tashkilotning pirovard maqsadlaridan yana biri, ittifoq hududida iqtisodiyotning “qon-tomiri” bo‘lgan energoresurslarning umumiy bozorini shakllantirish, ya’ni a’zo davlatlarning energetika kompaniyalari energoresurslarni cheklavlarsiz, birja auksionlarida shakllangan bozor narxlari bo‘yicha yetkazib berish ko‘zda tutilgan.

Energoresurslarning umumiy bozori tashkil qilinishi o‘z navbatida YEOII davlatlari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga, aholining turmush farovonligini oshishiga, shuningdek, energetik xavfsizlikni mustahkamlashga va jahon bozorida Ittifoq hududida ishlab chiqarilgan tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, ittifoq hududida ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishning barqaror sur’atlarini ta’minlashda bir qator yo‘nalishlarga e’tibor qaratilmoqda.

1. Transport logistika sohasini rivojlantirish borasida:

- umumiy transport-logistika xizmati bozorini shakllantirish;
- Yevroosiyo hududidagi transport koridorlarni salohiyatini oshirish va yangi koridorlar tashkil qilish;
- transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha umumiy takliflarni ishlab chiqish va zamonaviy logistika markazlarini yaratishdan iborat. Transport-logistika sohasini rivojlantirilishi ittifoq hududida tovar, xizmat, kapital hamda fuqarolarni hech qanday to‘siqlarsiz aylanishiga salmoqli hissa qo‘sadi.

2. Ittifoq hududida umumiy moliya bozorini tashkil qilish.

YEONIda samarali moliyaviy bozorni shakllantirish maqsadida:

- a)** milliy qonunchilikni va uni qo‘llash amaliyotini uyg‘unlashtirish;
- b)** qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solishni takomillashtirish;
- v)** iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalarini kreditlash hajmini oshirish;

g) iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish kabi vazifalarni bajarish ko‘zda tutilgan. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy integratsiya jarayonlarini yanada chuqurlashtirib, barqaror rivojlanish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

3.Qishloq xo‘jaligi sohasida uyg‘unlashgan siyosat yuritilishini ta’minlash. Bugungi kunda YEOII a’zo davlatlari qishloq xo‘jaligi sohasidagi turlicha iqtisodiy mexanizmlarni (*kreditlash va subsidiyalar taqdim qilish, narxlarni tartibga solish, sug‘urta, soliqqa tortish*) amalga oshirmoqda. Shuningdek, Ittifoq hududida agrar sohasidagi ma’muriy to‘sqliarni olib tashlash, mavjud iqtisodiy mexanizmlarni uyg‘unlashtirish, bojaxona reguliyatsiyasini soddalashtirish, veterinariya va fitosanitariya nazoratining yagona qoidalariga amal qilish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan o‘zaro savdo hajmini oshirish hamda boshqa davlatlarga qishloq xo‘jaligi mahsulotini eksportini oshirish maqsad qilingan.

4. Hududlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va yagona innovatsion makon yaratish. YEOIIda endilikda sanoat kooperatsiyasida nafaqat ikkitomonlama hamkorlik, balki ko‘ptomonlama mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy harakatlar boshlangan. Bundan asosiy maqsad har bir a’zo-davlatni salohiyatidan kelib chiqqan holda, sanoat kooperatsiyasi jarayonini yanada tezlashtirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish, o‘zaro yangi innovatsion texnologiyalar va izlanmalar bo‘yicha almashinuvlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, shuningdek, ko‘ptomonlama investitsion loyihalarni amalga oshirishdir.

Hozirgi kunda YEOII doirasida sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish maqsadida “**YEOII sanoat kooperatsiyasi va texnologiyalar transferi tarmog‘i**”ning maxsus raqamli platformasi yaratilgan. Ushbu platforma YEOIIga a’zo davlatlar hududida joylashgan korxonalar va mahsulot yetkazib beruvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mavjud innovatsion ishlanmalar va texnologiyalar yordamida texnologik ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish hamda yagona raqamli ekosistema yordamida mahsulotlarni eksport qilishga xizmat qilmoqda.

YEON integratsion tuzilmasining SWOT tahlili

Kuchli tomoni	Kuchsiz tomoni
<ul style="list-style-type: none"> – tovar, xizmat, kapital va ishchi kuchining erkin harakatini ta’minlanishi; – geografik qulayligi; – tarif va notarif, savdo to‘sqliarning bekor qilinishi; – yuqori salohiyatga ega tabiiy qazilma boyliklariga egaligi; 	<ul style="list-style-type: none"> – iqtisodiy rivojlanishdagi tafovut; – o‘zaro savdo aylanmasida xomashyo (neft-gaz) mahsulotlari ulushining yuqoriligi; – soliq normalaridagi nomutanosiblik; – tovarlar import strukturasida xorijiy texnologiyalar va xom-

<ul style="list-style-type: none"> - a'zo mamlakatlar madaniy aloqalarining yaqinligi (shu jumladan, rus tili); - yagona transport logistik tizimi va tranzit salohiyatining yuqoriligi; - ittifoq hududidagi hujjatlar va ma'lumotlar almashuv tizimining mavjudligi; - a'zo mamlakatlar xavfsizligi KXSHT tashkiloti bilan hamkorlikda ta'minlanishi; - YEIning analogi, ya'ni "jozibador model". 	<ul style="list-style-type: none"> ashyo (neft-gaz) mahsulotlari ulushining yuqoriligi; - mamlakatlar narx-navolari o'rtaqidagi nomutanosiblik.
--	---

Shu o'rinda, ittifoq doirasida hal etilishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalar haqida to'xtaladigan bo'lsak, birinchi navbatda davlatlararo ahamiyat kasb etuvchi tashqi savdo va bojxona siyosatiga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Chunki puxta o'ylangan tashqi savdo va bojxona siyosatining amalga oshirilishi nafaqat Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasidagi integratsiyaning yangi bosqichga ko'tarilishiga, balki a'zo davlatlarning xalqaro savdo jarayonlarida faol ishtirok etishida ham muhim omil bo'ladi.

Bu yo'nalishda **quyidagilarga** alohida e'tibor qaratish lozim hisoblanadi:

davlatlararo to'laqonli erkin savdo rejimini joriy etish;

yagona bojxona tariflari va tartibga solishning yagona notarif usullarini joriy etish;

tovar va xizmatlar savdosining umumiyligini qonun-qoidalarini joriy etish va ularning ishtirokchi davlatlar ichki bozorlarida qat'iy amal qilishini ta'minlash;

ishtirokchi davlatlar tomonidan Jahon Savdo Tashkiloti va boshqa xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishda yagona kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqish;

ittifoq doirasida a'zo mamlakatlar tashqi chegaralarida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash;

ittifoqga a'zo davlatlarning milliy qonunchiliklarini o'zaro muvofiqlashtirish;

o'zaro savdoda to'siqlar va cheklowlarni bartaraf etish;

sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish;

yangi transport koridorlarini qurish bo'yicha loyihalarni ilgari surish;

raqamli iqtisodiyotga o'tish;

muhim biznes tashabbus va dasturlarini amalga oshirishda kuzatuvchi-davlatlarni faolroq jalb etish;

ittifoq komissiyasi organlarida kuzatuvchi davlatlarning ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish.

Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarning barchasini YEOIIga a'zo davlatlarning o'zaro teng manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish, bunda ishtirokchi tomonlarning yagona "konsensus" larga erishishi orqaligina amalga oshirish mumkin.

Zero, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida integratsiya jarayonlarining makro darajasi – iqtisodiy siyosatni davlatlararo muvofiqlashtirish orqali hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish demakdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, endilikda kuzatuvchi davlat maqomini olgan O'zbekistonga YEOIIning a'zolari va hamkor davlatlari bilan muloqotni mustahkamlash, tashkilotning dasturiy va shartnomaviy organlari hujjatlarini amalda tatbiq etilishini yanada chuqurroq o'rganish, a'zo davlatlarning o'zaro hamkorlik mexanizmlari, qaror qabul qilish jarayoni, mavjud meyoriy-huquqiy baza va uni qo'llash amaliyoti kabi muhim jarayonlar bilan tanishish imkoniyati yaratildi.

Shu munosabat bilan, kelgusida O'zbekistonning mazkur integratsion uyushmaga a'zo bo'lishi respublikada rivojlanayotgan ilmiy va texnologik inqiloblar, xalqaro savdo, kapitalning ko'chib yurishi, zamonaviy transport, aloqa va axborot tizimlari iqtisodiy hayotning xalqarolashuvi jarayonining global shakllangan darajaga o'tishiga, sanoat infratuzilmalarning rivojlanishiga, tashqi savdo va bozorlarning erkinlashuviga olib keladi.

Foydalaniqan adabiyotlar

1. Abulqosimov H.P. "Davlatning iqtisodiy xavfsizligi". O'quv qo'llanma. - T.: Akademiya, 2012.- 162-bet.
2. "O'zbekiston uchun Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII)ga a'zo bo'lish iqtisodiy va siyosiy jihatdan qanchalik manfaatli?", <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-uchun-evroosiyo-iqtisodij-ittifoqi-eoiiiga-azo-bolish-iqtisodij-va-siyosij-zhihatdan-qanchalik-manfaatli>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 30-dekabr.
4. Бюллетень о внешней торговле товарами Евразийского экономического союза со странами ЕАЭС и вне ЕАЭС. Евразийская экономическая комиссия-2021. 1-2 б;
5. Внешняя торговля ЕАЭС по странам // Портал ЕЭК. URL: http://www.eurasiancommission.org/ru/act/integrimakroec/tradestat/tables/extr/a/Documents/2019/12/E201912_2_1.pdf (дата обращения: 21.04.2020);
6. O'zbekiston va YEOII: Hamkorlikning istiqbolli yo'naliishlari. <http://isrs.uz/uz/maqolalar/amkorlikning-istikbolli-junalislari>;
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. 16.07.2021. — URL: <https://strategy.uz/index.php?news=1341>